
JURNALISTLAR HOKIM YORDAMCHILARI TOMONIDAN OLIB BORILAYOTGAN ISHLAR BILAN TANISHISHDI

Press-tur

Bugun 2022 yil 12 may kuni AOKA direktori va viloyat hokimi tomonidan tasdiqlangan reja-grafikka asosan Rishton tumanida navbatdagi press-tur o'tkazildi. Mazkur tadbirda tumanimizda faoliyat yuritayotgan jurnalistlar, ijtimoiy tarmoq faollari va hokim yordamchilari ishtirok etishdi. Press tur qatnashchilari Rishton tumani "Qayrag'och" va "Sohibkor" mahalla fuqarolar yig'inlarida hokim yordamchisi sifatida faoliyat yuritayotgan Hasanboy Quchqorov va Abduqahhor Hakimovlar tomonidan olib borilayotgan ishlar bilan tanishishdi.

So'nggi paytlarda mahalalarda aholini biznesga jalb qilish va ijtimoiy himoya qilishda xujajlarning yangi "o'sish nuqtalari"ni aniqlash hamda drayver sohalarda oilaviy tadbirkorlik va xizmat ko'rsatish loyixalarini amalga oshirishga e'tibor qaratilmoqda. Bugun ushbu mahallaning qaysi ko'chasiga kirmang, tomarchilikdan oilasiga mo'may daromad olib kelayotgan fuqarolarni ko'rasiz. Bugun ushbu mahallaning barcha fuqarosi mehnat bilan band. Press-tur ishtirokchilari Qayrag'och va Sohibkor MFYlardagi tomorqachilik va tadbirkorlik ishlari bilan tanishishdi.

Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-05-12 15:46:17